


<https://natscience.jdpu.uz/>



Journal of
Natural science
№ 1(10) 2023

Chemistry
Biology
Geographyu

<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Масъул котиб- Ш.Урозов</p>	<p><u>Бош муҳаррир</u> Худанов Улугбек Ойбутаевич, доц., к.т.н.</p> <p><u>Тахририят аъзолари:</u></p> <ol style="list-style-type: none">1. Яхшиева З- к.ф.д., профессор ЖДПУ2. Шилова О.А.-к.ф.д., профессор. И.В. Гребенщиков номидаги Россия ФА Силикатлар кимёси институти3. Маркевич М.И. -ф.м.ф.д.. профессор. Беларусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Нидерландия5. Анисович А.Г.- ф.м.ф.д..профессор. Беларусия ФА6. Кодиров Т- к.ф.д., профессор ТКТИ7. Абдурахмонов Э– к.ф.д., профессор СамДУ8. Насимов А-к.ф.д., профессор СамДУ9. Сманова З.А.-к.ф.д., профессор ЎзМУ10. Мавлонов Х-б.ф.д.,проф ЖДПУ11. Қутлимурудова Н.Х-к.ф.д., доц. ЎзМУ12. Нуралиева Г.А.-доц.ЎзМУ13. Султонов М.М.-к.ф.д.,доц ЖДПУ14. Худанов У.О. – доц., ЖДПУ15. Муродов К.М.- доц. СамГУ16. Абдурахмонов Ғ- доц ЎзМУ17. Янгибоев А-ф.д.(кимё)(PhD), доц ЎзМУ18. Хакимов К –г.ф.н., доц. ЖДПУ19. Азимова Д-б.ф.н. ЖДПУ20. Гудалов М- доц ЖДПУ21. Орзикулов Б.- ф. д. (кимё)(PhD), ЎзМУ22. Хамраева Н-доц. ЖДПУ23. Рашидова К-доц ЖДПУ24. Мурадова Д- доц ЖДПУ25. Инатова М.С.-доц ЖДПУ
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика университети</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика университети Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

<https://natscience.jdpu.uz>

**PESHAG`AR QISHLOG`I VA UNING TARIXIGA OID AYRIM
MULOHAZALAR**

Adilova O.A.-dotsent

Musurmonqulov F.A.-bakalavr

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya:Maqolada Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Peshag`or g`ori hamda Peshag`or qishlog`i tarixi (XVIII asr boshidan XIX asrning 60- yiillarigacha) hamda hozirgi kunda bu hududdagi olib borilayotgan ishlar haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Zomin, Xo`jai Serob Ota, fors, Rashxat-ul ayn ul hayot, Mavlono Muhammad, Amir Nasrullo, Qo`rg`on, Jizzax, Shahrisabz, Yom, O`ratepa, Urmetan, Istaravshan, Qo`qon.

Jizzax viloyati Zomin tumani nafaqat respublikamizdagi balki, O`rta Osiyodagi o`ziga xos betakror go`shalardan biridir. Zomin bunday o`ziga xos tabiati bilan dunyo sayyohlarini o`ziga jalb etib kelmoqda. Bu o`z-o`zidan sayyohlar oqimining ko`payishiga va hududda yangi zamonaviy infratuzilmaga ega bo`lgan imkoniyatlarni yaratishni taqozo qilmoqda. Zomin tog`lari o`zining qadimgi tarixiy strategik ahamiyati, go`zal tabiati, boy mineral-xomashyo resurslari va hammaga ma`lum va mashhur ziyoratgohlari bilan qadimdan ma`lum. Bu maskanda joylashgan shunday ziyoratgohlardan biri bugungi kunda mahalliy sayyohlarning maskaniga aylanish bilan birga xorijiy sayyohlar bilan ham gavjum.

Bu qadimiy ziyoratgoh Jizzax viloyati Zomin tumani Pishag'or aholi punkti yaqinidan o'tgan yo'lning chorrahasida joylashgan «Xo'jai Serobota» ziyoratgohidir. Fors-tojik tilida «Suvi ko`p xo`ja» demakdir. Ushbu ziyoratgoh yashil o'simliklar, daraxtlar va bog`lar bilan qoplangan bo`lib, kelgan ziyoratchilarning ko`ngli musaffolik va ziyo nuri bilan to`lib toshadi. Bu ziyoratgohning atrofini quyuq daraxtzor o`rab turgani, etakda adirlab oralab Ravotsoy tekisligigacha cho`zilib ketgan katta qishloqni suv bilan ta`minlaydigan buloq aynan mana shu yerdan boshlanadi.

Katta qishloqni doimo suv bilan ta`minlab turadigan, sersuv buloqni mahalliy aholi «Xo'jai Serob» deb atashadi. Bu yerda vaqt xuddi to'xtab qolgandek, ziyoratchilarning ko`ngliga yorug`lik va ulug`vorlik baxsh etgan, kulfatlar va qiyinchiliklar esa barham topib ulardan chekingandek tuyuladi. Sal teparoqda esa avliyoning qabr toshini, uning yonida esa ushbu dargohga ulug`vorlik va joziba baxsh etgan masjidni ko'rishingiz mumkin[1].

Albatta, bu ziyoratgohdagi qabr toshi kimga tegishli degan haqli savol tug`iladi, javobi esa juda oddiy, bu mahalliy atoqli mutafakkir bo`lmish Mavlono Muhammad Peshag'oriy dafn etilgan joy hisoblanadi. Ba'zi ma`lumotlarga ko`ra mutafakkir 1321

yilda tug'ilgan. Atoqli alloma shaxsi xususidagi ma'lumotlarni siz, Faxriddin Ali ibn Voiz al Koshifiy qalamiga mansub bo'lgan «Rashxat-ul aynulxayot» solnomasida uchratishingiz mumkin. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, Mavlono Muhammad Peshag'oriy nasroniy kalendariga ko'ra 700 yilda tavallud topgan bo'lib, uni ko'pchilik «Xojai Serob yoki «Xojai Sariob» nomi bilan tanigan.

Aytishlaricha, Mavlono Muhammad Peshag'oriy bu joyga uzoq o'lkalardan kelgan va umrining oxirigacha shu joyda yashab o'tgan. Ajablanarlisi, mavlono bu joyni bekorga tanlamagan, shu yerda qolib mahalliy aholiga bilim ulashgan. Mahalliy aholidan Muhammad Peshag'oriy to'g'risida turli rivoyatlarni eshitish mumkin, aytishlaricha u shu yerda o'ziga uncha katta bo'lmagan uy qurgan va halol mehnati bilan rizq topgan. Qishloqda muqim qolib, mahalliy urf-odat va an'analarni bekamuko'st bajargan va o'ziga «Pishag'ariy» ya'ni «Pishag'arlik» nisbasini qabul qilgan.

Xo'jai Serobota umrining so'nggi kunlarigacha shu qishloqda yashab, bog'dorchilik, uzumchilik bilan shug'ullangan, mahalliy yoshlarni hunarmandchilikka va halol mehnat qilishga o'rgatgan. Xalq orasida inson salomatligi uchun foydali bo'lgan shifobaxsh tog' bulog'i suvi juda mashhur bo'lib, kasalligi bor insonlar ushbu suvdan ichsa, tanasidagi og'riqlarni qoldirishga davolashda yordam beradi deyishadi. Bu yerning go'zal tabiati va iqlimi o'ziga xos bo'lib, har qanday kasalligi bor insonlar uchun juda ham foydalidir.

Hozirgi kunda Pishag'or va Qang'li qishlog'ida istiqomat qiluvchi uch mingdan ortiq mahalliy aholi ushbu buloq suvidan iste'mol qilib kelmoqda. Ishonish qiyin, lekin qalb oynasidek tiniq bo'lgan ushbu buloq suvining bir qultumi ham har qanday chanqoqni qoldiradi hamda ajoyib ta'mdan rohatlantiradi. Buloq irmoqlarida suzib yurgan baliqlar tabiat in'omlari va ziyoratchilar tashlagan non ushoqlari bilan oziqlanishadi[2].

Mustaqillik sharofati bilan Mavlono Muhammad Peshag'ariy ziyoratgohi diniy turizm markaziga aylandi, bu yerda qo'shni viloyatlardan kelgan mehmonlar bilan bir qatorda xorijlik sayyohlarni ham o'ziga jalb etib kelmoqda. Ziyoratgohni obod qilish va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratishda Peshag'ar qishlog'i va mahalla faollaridan A.Ilashev, Yu.Ahmedov, S.Qarshiboyevlarning hissasi katta bo'ldi. Aynan ularning say`-harakati bilan 1997-2001 yillarda ziyoratgoh hududida juda katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Ajablanarlisi shundaki, Peshag`ar qishlog`i yaqinida hammaga mashhur g`or joylashgan. Peshagar g'orida topilgan topilmalar arxeologik jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, olimlarda katta qiziqish uyg'otadi va qadimda g`orda odamlar yashaganligini ko'rsatadi. G'ordan odam suyaklari, uy-ro'zg'or buyumlari, sopol idishlar va devorlarida turli toshbitiklar topilgan. G'orga taxminan 1.0 - 1,5 metrlik tuynuk orqali kiriladi va u to`rtta katta xonaga ajraladi.

XVIII-XIX asrlarda Peshgʻar qishlogʻi Buxoro amirligi va Qoʻqon xonligi oʻrtasidagi muhim va strategik hududlardan biri boʻlib kelgan. Tarixiy manbalarda, jumladan “Tarixi Fargʻona” asarida: “Mushori Shayx Muhammad Alixon Xoʻqandiy ila Buxoro oʻrtasida Lashgʻar (Peshgʻar) nomli qalʼa xususida Buxoro Amiri Nasrulloh bahodir ila oʻrtalarida burudat tushub, Amir bunga bir goʻshmol bermak boʻlib, Muhammad Alixon otasining mankuhasini oldi. Balki haromni halol dedi. Kofir boʻldi, necha-necha bidatlarni joriy qildi deb, tahdid qilib Xoʻqandga kelmoqda edi”. [3]

Bundan tashqari, Sayyid Mansur Olimiyning “Buxoro Turkiston beshigi” asarida ham: “Amir Nasrullo hijriy 1248 yilda Qoʻqon xonligiga hujum qilib Jizzax, Oʻratepa, Xoʻjandni ishgʻol etdi...” [4], deb yozgan va Jizzax, Zomin, Oʻratepa kabi hududlarga katta urgʻu berilgan. Shuningdek, hozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharq qoʻlyozmalari foʻndida saqlanayotgan Tojir Xoʻjandiyning “Gʻaroyibi sipoh” asarida ham Muhammadalixonning Xitoyga yuborgan Aʼlam Pochcha boshchiligidagi elchilikning maktubida xuddi shu maʼlumotlarni tasdiqlaydigan izoh mavjud.

“...Xudoga shukurkim, ajdodlarimdan musulmonman va hozirda bu mamlakat mening padari buzrukvorimdan meros qolgan. Endilikda davlar nogʻarasini mening adolat tomimda chalmoqdalar. Ibrat koʻzini ochib, mening nimalar qilganimni koʻr. To Qashgʻar mulkigacha borib gʻazot qildim. ikkinchi bor xizmatkorim Haqquli mingboshiga amir qildim, borib gʻazot qilib, sizlarningkulingizni koʻkka sovurib keldi. Bu tarafda to Istrafshon, Yom va Zomin hamda Achchi suvigacha itoat kamarini mening egarim uzangisiga bogʻladilar. Xudo xohlasa, jahonni yaratuvchidan umidim tez kunlarda Rumdan to Xitoy mulkigacha farmonbordor qilsa” [5]

Aslida ham urush kelib chiqmasdan oldin ikki oʻrtada shartnoma tuzilgan boʻlgan. “Zafarnomayi xusraviy” asari muallifining yozishicha, tuzilgan shartnoma shartlariga binoan ikki davlat chegarasi Achi daryosi davlat chegarasi boʻlib kelgan. Daryodan u yoki bu tomon hududi yashovchilariga ozor bermaslik va hech bir masalada bir-birining nafsoniyati bilan oʻynashmaslik, daxlsiz hududlarning quvonch palosini hech bir tomon oʻz nazorati ostiga olishga urunmaslik, hamda dashtlik chorvador fuqarolarning erkini taʼminlash va tinchligini buzmaslik, har kim adolat va insof yuzasidan oʻzining xudo bergan qudrat asosli davlati bilan qanoatlanib, sayohat shiorli savdogarlarning keldi-ketdi yoʻllarini qaroqchilardan tozalash borasidagi bitimga kelishilgan edi”. [6]

Ammo, “Zafarnomayi xusraviy” asari muallifining takidlashicha, 1256 hijriy, yaʼni 1840-1841 yili Muhammad Alixon ayrim nobakorlar igʻvosiga uchub, Buxoroga qarshi yurish boshlaydi. [7] Tarixchi Muhammad Hakimxon Toʻraning

yoziqshicha Buxoroga qarshi yurish boshlagan Muhammad Alixon Peshag`arga kelib, qal`ani tuzatib, unga Dovul parvonachining o`g`li Gadoyboyni tayinlab, Qo`qonga qaytadi. Muhammad Alixon o`zining 400 nafar askari bilan Peshag`ar qishlog`idan chiqqanida to`satdan Buxoro amirligining 800 nafar askarlari unga hujum qiladi. Muhammad Alixon zo`rg`a 9 nafar askarlari bilan qurshovdan chiqishga muvaffaq bo`ladi. Lekin unda bu jang kuchli qo`rquvni hosil qilishi natijasida, shu kuni kechasi asosiy harbiy kuchlarini o`z holiga qoldirib Qo`qonga qaytib ketadi. Albatta bu holat Qo`qon askarlari orasida ruhiy tushkinlikni keltirib chiqaradi.

Peshag`or qal`asi uchun bo`lgan jangdagi g`alaba katta ahamiyatga ega bo`lib, Buxoro amirligi askarlarining ruhiyatini ko`tarib yuboradi. Amir Nasrullo qolgan Zomin, Yom, O`ratepa, Xo`jand qal`alarini egallash uchun Qo`qonga qarshi yirik jangga tayyorgarlik ko`ra boshlaydi. U Jizzaxni bu yurish uchun tayyanch manzilga aylantiradi. Qo`qonga qarshi yurish uchun endi Amir Nasrulloga kichik bahona kerak edi.

Shubhasiz, bularning barchasi mustaqillikning bizga yaratib berayotgan imkoniyatlari va sohada olib borilayotgan keng islohotlar bugungi kunda tariximizni bilishimizga, ota-bobolarimizdan qolgan meroslarni asrab avaylashga, ajdodlarimiz bilan faxrlanishga keng imkon berdi. Xalqimiz o`zining yorqin kelajagiga ishonch ko`zlari bilan boqayotgan ayni paytda, biz haqiqatdan ham o`zbek xalqining boy tarixi to`g`risida butun dunyoga baralla gapirish imkonini qo`lga kiritdik.

Adabiyotlar :

1. Atabayev R. Turizm resurslarini tahlil qilish va baholash. Sam.ISI — 2006.
2. Burgutli O. Bu eski zomin. Toshkent, 1996 y.
3. Ishoqxon To`ra Ibrat .Tarixi Farg`ona. Nashirga tayyorlovchi va izoxlar muallifi Ulug`bek Dalimov, Nurboy Jabborov, T.: “Ma`naviyat”, 2005 .
4. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro Turkiston beshigi. – Buxoro: “Buxoro”, 2004.
- 5.Tojir Xo`jandiy “G`aroyibi sipoh(qo`shin ajoyibotlari)” . O`z.F.A. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sh.I.fondi qo`lyozmasi. № 5408
- 6.Zafarnomayi xusraviy. Fors-tojik tilidan tarjimonlar Sh. Vohidov, Sh. Jo`rayev. T.: “Tamaddun”, 2011.
- 7.Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari).Fors-tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Fan va texnologiya”, 2014.